



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSİYALAR, SANOAT VA SAVDO
VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 87-i-son

09-sentabr 2024-yil

**Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining
Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi
faoliyatini tartibga solish haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-111-sonli Farmoni va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparati hamda hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilmalarini o'zgartirish haqida"gi 80-i-sonli buyrug'iga muvofiq:

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi rahbar-xodimlarining funksional majburiyatlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir

L. Kudratov

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining
Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasining Yuridik va jismoniy
shaxslarning murojaatlari bilan ishlashga mas'ul xodimlarning FUNKSIONAL
MAJBURIYATLARI**

Vazirlikda samarali ish yuritishni, kiruvchi va chiquvchi murojaatlarini qabul qiladi hamda elektron hujjat aylanish tizimiga kiritadi va ularning hisobini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonasi, ishonch telefoniga kiruvchi qo'ng'iroqlarni, Vazirlik veb-saytiga, shuningdek, vazirlik rahbariyatining shaxsiy qabuli va sayyor qabuli davomida jismoniy va yuridik shaxslardan soha yo'nalishi bo'yicha kelib tushgan barcha murojaatlarni O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga qat'iy amal qilgan holda, to'liq, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etiladi va nazorat qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha tahliliy jadvallar ko'rinishidagi hisobotlarni belgilangan tartibda tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va rahbariyatga taqdim etib borishni ta'minlaydi;

boshqarmaning muddati uzoq hamda qisqa hujjatlarini yig'majild hujjatlar ro'yxatini shakllantirib jamlaydi;

jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi;

murojaatlar munosabati bilan ayon bo'lib qolgan ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlaydi;

Vazirlik tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga bergan javob xatlarini jo'natish ishlarini tashkil qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha hujjatlar hamda topshiriqlarning, shu jumladan, elektron hujjat aylanishi va nazorati axborot tizimi orqali ijro etilishi ustidan nazorat olib boradi va monitoring qiladi;

boshqarma boshlig'i va o'rinbosari topshiriqlarini ijrosini belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlaydi;

Vazirlik tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha hujjat aylanishi mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi va boshqarma boshlig'iga kiritadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kiruvchi yozishmalar ma'lumotlar bazasini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.